



O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2014-yil 19-dekabrda 0055-raqam bilan qayta ro'yxatga olingan.

2022-yil. 8-son.

Tahrir hay'ati:

Baxtiyor SAIDOV
Dilshod KENJAYEV
Nizomiddin MAHMUDOV
Yorqinjon ODILOV
Nasirullo MIRKURBANOV
Jabbor ESHONQULOV
Valijon QODIROV
Baxtiyor DANIYAROV
Abdurahim NOSIROV
Tolib ENAZAROV
To'lqin SAYDALIYEV
Ravshan JOMONOV
Zulkumor MIRZAYEVA
Qozoqboy YO'L DOSHEV
Tajixon SABITOVA
Salima JUMAYEVA
Nilufar NAMOZOVA
Qayum BAYMIROV
Lutfullo JO'RAYEV
(bosh muharrir o'rinnbosari)

Bosh muharrir

Bahodir JOVLIYEV

Sahifalovchilar:

Akmal FARMONOV
Gulnoza VALIYEVA

Nashr uchun mas'ullar:

Nilufar NAMOZOVA
Nigora URALOVA
Yuliya MUSURMANOVA

Tahririyat manzili:

100038, Toshkent shahri
Matbuotchilar ko'chasi 32-uy.
Telefon: (98) 121-74-16,
(71) 233-03-10, (71) 233-03-45,
(71) 233-03-67.
e-mail: til_adabiyot@mail.uz
vab-sayt: www.tilvaadabiyot.uz

Jurnalda ko'chirib bosilgan maqolalar "Til va adabiyyat ta'limi" dan olindi, deb izohlanishi shart.

Jurnalda nashr etilgan maqolalarda muanlliflarning tahririyat nuqtayi nazariga muvofiq kelmaydigan fikr-muhazalarini bosilishi mumkin.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muanlliga qaytarilmaydi.

Bosmaxonaga. 2022.28.08. da topshirildi. Ofset usulida chop etildi. Qog'oz bichimi 60x841/8. Sharqli bosma tabog'i 6.0. «Arial» garniturası. 10, 11 kegl. «ECO TEXTILE PRODUCT» MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Manzil: Toshkent sh. Mirobod tum., Matbuotchilar ko'chasi 32-uy. Buyurtma — Adadi 1500 nusxa. Bahosi kelishilgan narxda.

TIL VA ADABIYOT

TA'LIMI

O'ZBEKİSTON RESPUBLİKASI
XALQ TA'LIMI VАЗİRLİĞİNİNG
ILMIY-METODİK JURNALI

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА
НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

LANGUAGE AND LITERATURE
TEACHING

ПРЕПОДАВАНИЕ
ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

MUNDARIJA

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY
OF PUBLIC EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

MUNDARIJA

DOLZARB MAVZU

- | | |
|--|---|
| Nigora Uralova. Sovet davrida yozilgan yolg'on tarix haqiqatlari juda achchiq..... | 3 |
| Xadicha Muhitdinova. O'quvchilarning o'zbek tilidan bilim, ko'nikma va malakalarini baholash mezonlari | 9 |

TILSHUNOSLIK

- | | |
|--|----|
| Nizomiddin Mahmudov. Iboralar va ularning ma'no tarkibi tavsifi | 14 |
| Malika Dautova. Nominative features of modern english neologisms | 18 |

ILGOR PEDAGOGIK TEKNOLOGIYALAR

- | | |
|--|----|
| Nasima Qodirova. Adabiyot darslarida ijobji muhit yaratish texnologiyalari | 20 |
| Sadoqat Pirimqulova. Kommunikativ kompetensiyani shakllantirishda o'yin mashqlarining roli | 22 |

TAHLIL

- | | |
|--|----|
| Qobiljon Valiyev. Ingliz tili darslarida akademik litsej o'quvchilar nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari | 24 |
| Nilufar Cho'liyeva. Nazar Eshonqul qissalarida ramz va uning talqini | 26 |
| Nodira Yangiboyeva. "Kuzda bahor havosi" hikoyasining ijodiy biografiysi | 27 |
| Salima Jumayeva. "Iztiror" dostonida ishq va sog'inch falsafasi | 29 |

TADQIQOT

- | | |
|---|----|
| Yorqinjon Odilov. Iqbol Mirzo she'rlari tiliga lingvopoetik chizgilar | 31 |
| Mo'min Turdibekov. Ustrushan toponimining kelib chiqish tarixi | 33 |
| Minovvarxon Hojiyeva. Terminologik kompetensiyani shakllantirishda terminologik lug'atlarning o'rni | 35 |
| Mavluda Achilova. Pedagogik-psixologik tadqiqotlarda o'quvchilar tafakkurini rivojlantirish muammozing o'rganilishi | 36 |

KICHIK TADQIQOT

- | | |
|---|----|
| Aziza Mo'minova, Munavvar Amonova. Reklama matnlarida badiiy ifoda | 39 |
| Akbar Ruziyev. Xususiy diskurslarning lingvistik xususiyatlari | 41 |
| Gulzoda Soatova. Adabiy tanqidiy maqolalarda badiiy matn talqini | 43 |
| Ilhom Botirov. Yoshlarni ma'naviy-ma'rifiy va vatanparvarlik ruhiha tarbiyalashni shakllantirish | 45 |
| Ma'rifikat Ismailova. Strategik kompetensiya va kommunikativ strategiyalarning chet til o'qitishdag'i ahamiyati | 47 |
| Yusufjon Nabijanov. Edrawmax - grafik organayzlerlarni hosil qiluvchi dasturiy ta'minot | 48 |
| Zebo Umarova. Ingliz tilida turizmga oid terminlarning ayrim leksik-semantik xususiyatlari | 51 |
| Shahnozaxon Xalikova. Muloquent vaziyatida yosh va jins xususiyatlari | 53 |
| Fazliddin Badriyev, Olim Eshniyozov. Yangi O'zbekiston o'qituvchisi | 55 |

МЕТОДИЧЕСКИЕ РЕКОМЕНДАЦИИ

- | | |
|---|----|
| Tolib Keldiiev. Сложные случаи орфографии | 57 |
|---|----|

ИСПОЛЬЗУЙТЕ ЭТИ МАТЕРИАЛЫ

- | | |
|---|----|
| Barbo Baratova, Elena Shevchuk. Изучение синонимии слов как средства художественной выразительности | 60 |
|---|----|

ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ

- | | |
|---|----|
| Tatyana Polovinkina. Художественное воплощение отдельных восточных этностереотипов в произведениях С.Афлатуни «Ташкентский роман» | 64 |
| Dmitriy Puponin. Полижарная структура романа О.Громыко «Профессия: ведьма» | 66 |
| Aziza Gafurova. Экфрасис в прозе русских классиков | 70 |
| Dianna Sharapova. Небесное пространство в лирике Марины Цветаевой | 72 |
| Sevaraixon Otakhonova. Своеобразие стиля Льва Толстого | 73 |

ПРОБЛЕМЫ. ПОИСКИ. РЕШЕНИЯ

- | | |
|--|----|
| Shaxnosa Murakaeva. Проблемы развития устной речевой компетенции при обучении английскому языку в военных аудиториях | 75 |
|--|----|

НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ

- | | |
|---|----|
| Gulnosa Sabirova. Проблема формирования иноязычной речевой компетенции школьников | 77 |
| Dilgorom Islomova. О функциональных особенностях топонимического индикатора курган в русском и узбекском языках | 80 |

ФОРМЫ ОБУЧЕНИЯ

- | | |
|---|----|
| Aiboltag Borashova. Историческая диагностика предшественников перевернутого образования и его динамика в преподавании | 83 |
| Tatyana Polatova. Экспериментальное обучение заимствованной лексике на уроках русского языка | 85 |

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining Filologiya va Pedagogika fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrdir.

qilinadi". Jamiyat boshidan o'tkazgan barcha voqealari, yutuqlar, hatto kamchiliklar shu jamiyatning terminlarida o'z ifodasini topadi.

Keyingi paytlarda tilimizda "termin" so'zi o'rniiga "atama" so'zi qo'llanilayotgani kuzatilmogda. Buning noo'rinnligini tilshunos olim A.Hojiyev ham ta'kidlagan [6: 22–25]. Tilshunos olim A.Madvaliyev "atama" so'zini shartli ravishda qo'yilgan nomlarga, jumladan, geografik joy nomlariga, toponimlarga nisbatan keng ma'noda qo'llash maqsadga muvofiq ekanligini aytadi [7: 56].

Termin chegaralangan leksik qatlamga mansub lug'aviy birlik bo'lib, terminologik tadqiqotlarning asosiy obyekti hisoblanadi. Termin terminologik lug'atlar yaratishning muhim manbayidir. Terminlar – jamiyatning, umuman, insonlarning kasbiy faoliyatidagi asosiy vosita. Terminlar ilm-fan, texnika sohalarining rivojlanishi bilan shakllanib, takomillashib boradi.

"Terminologik lug'at tarkibining rivojlanishi jarayonida so'z yaratish, so'z tanlash, birinchidan, tilning ichki va tashqi imkoniyatini aniq farqlash, to'g'ri tushunish, ikkinchidan, tilning taraqqiyot qonuniyatlariga, uning talablariga asoslanib ish ko'rish lozim bo'ladi. Uchinchidan, til lug'at tarkibining, ayniqsa, terminologiyasining rivojlanishi da tashqi manba ham muhim rol o'ynashini hamma vaqt e'tiborda tutish shart" [8: 10-11].

Terminologik lug'at – har bir soha uchun zarur maxsus lug'at sanaladi. Terminologik yoki maxsus lug'at deganda, ensiklopedik lug'atlarning biror-bir ixtisoslik terminlarini – alohida bilim sohasi va fan-texnika tarmoqlaridagi tushuncha va predmetlarning nomlarini qamrab oluvchi, ularni tushuntirib, izohlab beruvchi turi tushuniladi [9: 11]. Demak, terminologik lug'at muayyan bir sohaga oid terminlarni tushuntirib berishi yoki bilimning turli xil, odatta, yondosh sohalari terminlarini qamrab olishi mumkin. Terminologik lug'atga tildagi muayyan soha terminologiyasi jamlanadi, uning izohi shu tilda beriladi yoki bunday

lug'at ikki, uch va ko'p tilli bo'lishi mumkin. Tilshunoslik terminologiyasiga quyidagi terminologik lug'atlarni misol qilib keltirish mumkin: O'zbek tili grammatik terminlarning qisqacha izohli lug'ati" (A.Hojiyev, L.Reshetova. T., 1980), "Lingvistik terminlarning izohli lug'ati" (A.Hojiyev T., 1985), "Nemischa-o'zbekcha grammatik atamalarining izohli lug'ati" (T.Z. Mirsoatova, M.Sattorov. T., 1990), "Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati" (A.Hojiyev. T., 2002.) va boshqalar.

Adabiyotshunoslik terminologiyasiga oid bir necha terminologik lug'atlar nashr etilgan: "Adabiyotshunoslik terminlari lug'ati" (H.Homidiy, Sh.Abdullayeva, S.Ibrohimova. T., 1967, 2-nashr 1970), "Adabiyotshunoslikdan qisqacha ruscha-o'zbekcha terminologik lug'at" (N.T.Hotamov. T., 1969), "Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o'zbekcha izohli lug'ati" (N.T.Hotamov, B.I.Sarimsoqov. T., 1979, 2-nashr 1983), "O'zbek aruz lug'ati" (A.Hojjahmedov. T., 1998.)

Xulosa qilib aytganda, terminologik lug'atlar bo'lajak filolog-mutaxassislarning terminologik kompetentligini rivojlantirishning asosiy manbayi hisoblanadi. Bo'lajak mutaxassisning fanga oid terminlarni puxta o'zlashtirishi, kasbiy faoliyatida ulardan unumli foydalanishi, mutaxassislikka oid terminlarni tushunishi, ularni o'z o'rnda qo'llay bilishi, terminlarning muqobilari, variantlari, sinonimlarini hamda tarixiy-etimologik manbalarini, mazmun-mohiyatini mukammal bilishi, ularni nutqiy vaziyatlarga mos ravishda qo'llay olish ko'nikma-malakalarini tarkib toptirishi, ya'ni terminlarni maqsadli ravishda amalda qo'llash layoqatini shakllantirishi terminologik kompetentlikning mazmun-mohiyatini belgilaydi. Buning uchun esa har bir talaba-yosh mutaxassisning ish stolida terminologik lug'atlar bo'lishi zarur. Terminologiya bilan bog'liq barcha muammolarni ilmiy hal etish, tilshunoslik va adabiyotshunoslikka oid terminologik lug'atlarni yaratish maqsadga muvofiq.

Foydalilanigan adabiyotlar

1. Словарь иностранных слов. – Москва: Русский язык, 1988. – С. 91.
2. Inoyatov U., Xodjaev B. Umumta'limiy kompetensiyalarini loyihalashtirishning konseptual asoslari // Xalq ta'limi ilmiy-metodik jurnali, 2016. №2. 8-bet.
3. Turdiyev N.Sh., Asadov Yu.M., Akbarova S.N., Temirov D.J. Umumiyl o'rta ta'lim tizimida o'quvchilarning kompetensiyalarini shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari. – Toshkent: T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston Respublikasi pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti, 2015. 160-bet.
4. Реформатский А.А. Термин как член лексической системы языка // Проблемы структурной лингвистики. – Москва, 1968. – С. 110.
5. O'zbek tili leksikologiyasi. – Toshkent: Fan, 1981. 28-bet.
6. Hojiyev A. Termin tanlash mezonlari. – Toshkent: 1996, 22–25-betlar.
7. Madvaliyev A. Termin – terminologik lug'at – izohli lug'at // O'zbek tili va adabiyoti. 2008, 6-son. 56-bet.
8. Hojiyev A. Termin tanlash mezonlari. – Toshkent: 1996. 10–11-betlar.
9. Гринев С.В. Введение в терминологическую лексикографию (учебное пособие). – Москва, 1986. – С.11.

Mavluda ACHIROVA,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti tadqiqotchisi

PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK TADQIQOTLARDA O'QUVCHILAR TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH MUAMMOSINING O'RGANILISHI

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'quvchilar tafakkurini rivojlantirish muammosining psixologik-pedagogik tadqiqotlarda o'rganilish ahamiyati yortit berilgan.

Annotation. The article illuminates the importance of studying the problem of development of pupils' thinking in psychological and pedagogical researches.

Аннотация. В статье освещена значимость изучения проблемы развития мышления учеников в психолого-педагогических исследованиях.

Kalit so'zlar: bilim, ko'nikma, mala-ka, kompetensiya, tafakkur, ontogenezi.

Keywords: knowledge, skill, ability, competence, thinking, ontogenesis.

Ключевые слова: знание, умение, навык, компетенция, мышление, онтогенез.

Mamlakatimizda ta'limg-tarbiyaga qo'yilayotgan zamonaviy talablar mazmunini barkamol shaxs kamolotini ta'minlashga qaratilgan g'oyalari belgilaydi. Xususan, boshlang'ich ta'limg sifati va samaradorligiga qo'yiladigan talablar o'quvchilarning bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyasini muntazam oshirib borish, o'quvchilarning iqtidorini to'g'ri tashxislash va yo'naltirish, ularning jamiyatda oson ijtimoiylashuvini amalga oshirish, turli xil madaniy ko'nikmalarini qaror toptirish kabilarda ko'zga tashlanadi. Bunday keng qamrovli talablarni sifatli bajarish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi va O'zbekiston pedagogika fanlar ilmiy tadqiqot instituti hamkorligida "Boshlang'ich ta'limg konsepsiysi" ishlab chiqildi. Unga ko'ra "shaxsga yo'naltirilgan hamda kompetensiaviy yondashuvga asoslangan boshlang'ich ta'limg jamiyat taraqqiyoti bilan barobar rivojlanib, takomillashib boruvchi ta'limg nazariyasiga tayangan holda muntazam tarzda rivojlantiriladi va shaxsni jamiyat talablari asosida yuksaltirishga xizmat qiladi".

Konsepsiyada boshlang'ich ta'limgning maqsad va vazifalari belgilab berilgan, uning sifat va samaradorligini oshirishning ilmiy-pedagogik asoslari tahlil qilingan, boshlang'ich ta'limg mazmuni aniqlashtirilgan, kompetensiaviy yondashuvga asoslangan davlat ta'limg standartlarini ishlab chiqish va ta'limg jarayoniga tatbiq etish, ta'limg jarayoniga innovatsion pedagogik texnologiyalarni va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tatbiq etish shartlari belgilab berilgan, o'quvchilarning bilimini nazorat qilish va baholash, iqtidorlik darajalarni aniqlash va iqtidorli o'quvchilar bilan ishslash mekanizmi yoritib berilgan, ota-onalar bilan hamkorlikni tashkil qilish, o'quvchilarning salomatligi, boshlang'ich sinf o'qituvchisiga qo'yiladigan kasbiy talablar va konsepsiyan hayotga tatbiq etish chora-tadbirlari bo'yicha metodik tavsiyalar keltirilgan.

Tadqiqotlarda inson miyasi o'sishining 90 foizi bolalikning dastlabki uch yilda sodir bo'lishi aytildi. Shunday ekan, maktabgacha va kichik mакtab yoshi inson miyasi rivojlanishining birinchi optimal davri hisoblanadi. Bu davrda inson tez o'rganish va rivojlanishga qodir: hislarini, qobiliyatini rivojlantiradi, o'z guruhini aniqlaydi, til va ijtimoiy xatti-harakatlarni rivojlaniradi. Olti yoshga kelib, miya allaqachon kattalar hajmining 95% ni tashkil qiladi, ammo kulrang materiya yoki miyaning fikrlaydigan qismi bolalik davrida qalinlashishda davom etaveradi, chunki miya tashqi dunyodan kelgan ma'lumotlarga javoban qo'shimcha aloqalar hosil qiladi.

Insonning shaklanish yillarda pedagogik va psixologik jihatdan ta'limga chanqoq o'quvchilarni tarbiyalash va ularga g'amxo'rlik qilish hamda maktabgacha ta'limg tajribasi o'quvchilar uchun umr bo'yи muhim ta'sir ko'rsatishi va bu butun jamiyatga foyda keltirishi manqiqan eng to'g'ri yo'ldir.

2000-yilda o'quvchilar rivojlanishining ahamiyatini anglash va ta'limgning ijobjiy ta'siri bo'yicha tadqiqotlari kuchaytirishga asoslanib, Milliy tadqiqot kengashi

(National Research Centre – NRC) AQSHda erta bolalik ta'limi bo'yicha tadqiqot o'tkazdi. Tadqiqot hisoboti va xulosasiga ko'ra, ta'limg sifati va samaradorligi to'rtta asosiy yo'naliш: o'qituvchilarning malakasini oshirish, bilimga asoslangan o'qitish, davlat siyosati va xalq ta'limi bo'yicha sa'y-harakatlarga bog'liq, deb topildi [1].

Ta'limg va unga munosabat, erta ta'limgning ijobjiy jihatlari bo'yicha Sharq mutafakkirlari ham o'z qarashlarini bayon etishgan. Mutafakkir shoир Alisher Navoiy tafakkur, aql va farosat, ilm va ma'rifatni inson kamolotining qanotlari sifatida e'tirof etadi. Shoир "Bilim va donishmandlik insonning bezagidir", [2: 21] deb yozádi. Shoир bolaga kichik yoshligidanoq bilim va tarbiya berish, savodini shakllantirish lozimligini uqtirgan holda bu borada Ibn Sinoning qarashlarini ma'qullaydi. Unga ko'ra, o'quvchilarni 6 yoshdan muallim qo'liga topshirish yaxshi samara beradi.

Burhoniddin Zarnuij "Bolaga ta'limg yo'lida qo'llanna" kitobida: "O'qib o'rganish uchun eng yaxshi vaqt yoshlik davri, erta tong va qosh qoraygan payt. Bilim oluvchi ana shu vaqtini samarali tashkil etishga odatlansin, bordi-yu, unga bir fan zerikarli bo'lsa, boshqasi bilan mashg'ul bo'lsin", [2: 20] deya ta'kidlaydi. Olim o'zining "Ta'limgul – mutaallim" nomli asarida ta'limganda izchillik, uzviylik va uzlusizlik tamoyillariga rioxha qilish lozimligini uqtiradi. Mazkur e'tirof Sharq xalqlarida ta'limg va uning o'zgarmas tamoyillari ancha oldin shakllanganligini ko'rsatadi.

"Devonu lug'atit turk" asarida Mahmud Qoshg'ariy bilim egallash insonning fazilati ekanligini ta'kidlaydi. Asarda "Ey o'g'lim, mendan o'git, nashhat ol, odobli va tarbiyalgi bo'lishga tirish, toki el ichida zo'r olim bo'lib tanil va ular orasida odob va ilm tarqat" yoki "Ilm, hikmat o'rgan, o'rganishda havoyilik va takabburlik qilma, hech narsa o'rganmasdan, o'zini bilimdon ko'rsatib maqtangan kishi imtihon vaqtida uyaladi, achninadi" [2: 21] kabi fikrlar allomaning ilm va ma'rifat borasidagi qarashlarini o'zida ifoda etadi.

O'rta Osiyoda yetishib chiqqan mutafakkir Yusuf Xos Hojib ham "Qutadg'u bilig" asarida bilimni yuskak qadrlaydi. Alloma bilimni boylik, kiyim, oziq-ovqat kabi narsa-hodisalarga qiyoslaydi. Bilim va bilimdonlikni qalban his eta olish, uni tushunish kerakligini aytadi va bilimdon bo'lishning tarbiya bilan chambarchas bog'liqligi, bolaga qanchalik barvaqt tarbiya berilsa, bilim olishga ishtiyooqi shunchalik ortishi haqida yozadi.

O'quvchining psixologik va fiziologik xususiyatlari, o'ziga xos shaxsxiy fazilatlariga oid o'z fikrlarini jamoatchilikka ma'lum qilgan yana bir mutafakkir Umar Hayyomdir. U o'quvchilar ta'limg dargohida egallagan bilimlari bilan cheklanib qolmasligi, balki hayotni kuza-tishi orqali egallagan bilimlarni mustahkamlashi, ta'limg jarayonida nazariya va amaliyot uyg'unligini ta'minlashi, egallagan bilim, ko'nikma hamda malakalarini har xil usullarda ko'p marotaba takrorlab borishi jarayonida mustahkamlashi zarurligini ta'kidlaydi. Shuningdek, olim o'z davrida ta'limg predmeti bilan hayot uzviy alo-

qadorligi prinsipini ilgari suradiki, bu bugungi ilm-fan va ta'lif-tarbiya jarayoni uchun ham o'z ahamiyatini saqlab kelmoqda.

Tadqiqotchilardan Sh.A.Do'stmuhamedova, X.A.Tillashayxova, G.Baykunusova, G.Ziyaviddinovalar yosh davrlari psixologiyasi ontogenezida psixik tadrijiy taraqqiyotning umumiy qonuniyatlarini, bola psixik rivojlanishi hamda psixologik xususiyatlarini o'rganishgan.

Biz ham tadqiqotimiz davomida yosh psixologiyasi bilan bog'liq davrlashtirishni amalga oshirdik. Unda insonlarning jismoniy va ruhiy rivojlanishi bilan bog'liq quyidagicha davriy chegaralar o'z ifodasini topgan:

- 1) bolalik davri psixologiyasi;
- 2) kichik mакtab yoshidagi bolalik davri psixologiyasi;

- 3) o'smirlik davri psixologiyasi;
- 4) ilk o'spirinlik davri psixologiyasi;
- 5) katta yosh davri psixologiyasi;
- 6) qarilik davri psixologiyasi (gerontopsixologiya).

Australiyalik psixolog K.Byuler "o'quvchilarning faqat aqliy taraqqiyotigina emas, balki axloqiy rivojlanishi ham nasliy tomondan belgilangandir", deb ta'kidlaydi [3].

Amerikalik pedagog va psixolog J.Dyui - inson tabiatini o'zgartirib bo'lmaydi, inson irsiyat vositasida hosil qilgan ehtiyojlari va psixik xususiyatlari bilan tug'iladi. Bu ehtiyojlar va psixik xususiyatlar tarbiya jarayonida namoyon bo'lib, tarbiyaning miqdorini belgilab beruvchi mezondir, u ba'zida o'zgarishi mumkin, deb hisoblaydi [4].

Australiyalik vrach-psixolog Z.Freyd ham bu borada J.Dyui ta'lilotiga hamohang fikr bildirib, shaxs faolligini va uning harakatga kelishini ta'minlovchi kuchlarni quyidagicha tushuntiradi: "inson o'zining qadimiy hayvon tariqasidagi avlod-ajdodlaridan nasliy yo'l bilan o'tgan instinkтив mayllarning namoyon bo'lishi tufayli faoldir". Dyuining ta'lilotiga ko'ra, "tormozlangan instinkt va mayllar yo'qolib ketmaydi, balki bizga nomalum bo'lgan ongsizlik darajasiga o'tkazib yuboriladi" [5: 265].

Tadqiqotchilar F.Akramova va G.Ochilovalar "Muloqot – o'quvchilarda aqliy, axloqiy hislarning paydo bo'lish jarayoni, o'yin esa faoliyat turlaridan biri bo'lib, o'quvchilarning kattalar faoliyatini, ish-harakatlarini aks ettirishda ifodalanadigan va atrofni bilishga qaratilgan faoliyatdir", [6: 87] degan fikrni ilgari suradilar.

Ilmiy-pedagogik tafakkur dialektika qonunlari asosiga quriladi. Unda o'quvchilar hayotiy faoliyatining tashqi shart-sharoitlari va tasodifiy stimullarini taqozo etuvchi o'z-o'zini rivojlanirish, o'z-o'zini harakatga yo'naltirish nuqtayi nazaridan pedagogik dalil, vaziyat, hodisa, voqeliklar hisobga olinadi. Bola qanday harakat qilishiga qaramasdan, uning xulq-atvori va shaxsini tahlil etishda nafaqat yaxshi yoki yomon xatti-harakatiga oid aniq dalillar, balki uning ichki olami bilan bog'liq motiv, ehtiyoj, qiziqishlarni hisobga olish zarur. Masalaga bunday yondashuv shakllanayotgan shaxsning xulq-atvori tasodifiy yoki xarakteridagi qonuniyat natijasi ekanligini ishonchli aniqlash imkonini beradi. Bu esa xulq-atvori pedagogik savodxonlik bilan tahlil etish, unga asosli baho berish va to'g'ri ta'sir ko'rsatishga yordam beradi. Pedagogik, shuningdek, hayotiy nuqtayi nazaridan

o'quvchilarning o'zaro birgalikdagi harakati nafaqat tarbiya obyekti sifatida, balki o'z-o'zidan shaxsiy hayotni aks etadigan, anglaydigan, o'z-o'zini qayta tashkilashtiradigan ijodiy harakatlanuvchi subyektlar tarzida namoyon bo'ladı. Shuning uchun pedagoglar o'quvchilarning fikrashi va xulq-atvori dagi turli kutilmagan, oddiy bo'limgan istalgan vaziyatlarga tayyor bo'lishi va operativ ta'sir ko'rsatishi lozim. Haqiqiy ma'nodagi pedagogik tafakkur pedagogga tayyor namunalardan voz kechish, yangilikni qabul qilish, narsa-hodisalarga uygoq nigoh bilan qarash, qarama-qarshiliklarni tahlil etish va uni hal etishga yo'l topishda yordam beradi, [7: 190] degan ilmiy qarashlarni ilgari suradigan tadqiqotchilar ham mavjud.

Tadqiqotimiz davomida pedagogik tafakkurning quyidagidek qator mezonlari va parametrlari aniqlashtirildi:

- tarbiyaviy hodisalar va dalillarni yaxlitlikda, o'zaro aloqadorlik va o'zaro bog'liqlikda tahlil etish qobiliyati;
- pedagogik o'zaro harakat va ta'sir ko'rsatish qobiliyati;
- pedagogik harakatni ta'lif-tarbiyaning maqsad va natijalari bilan o'zaro taqqoslay olish qobiliyati;
- pedagogik tafakkur yuritish jarayonida fikrashuning barcha turlari va usullaridan foydalanish qobiliyati;
- pedagogik nuqtayi nazaridan haqiqat va yolg'oni farqlay olishni yaxlitlikda amalga oshirish qobiliyati;
- pedagogik voqelikni tahlil etishda mavhumlikdan aniqlikka qarab borish qobiliyati;

- murakkab shablon va stereotiplarni rad etish, baholash, umumlashma, yondashuv, harakatlarni izlab topish qobiliyati;
- amaliy, ijodiy izlanishda nazariya va yangi g'oyalardan foydalanish qobiliyati;
- o'quvchilar bilan muloqot jarayonida dalillarni samarali qo'llash va ishonchli asoslash qobiliyati;
- fikriy egiluvchanlik va tezkorlikning namoyon bo'lishi qobiliyati;
- taktik va strategik harakatlarni farqlay olish qibiliyati.

O'quvchilar tafakkurini rivojlanirishga qaratilgan bir qancha metodlar mavjud bo'lib, ulardan biri "O'quvchilar ijodini o'rganish metodi" hisoblanadi. Mazkur metod o'quvchilarning aniq bir yo'nalishdagi qobiliyati, layoqati, shuningdek, bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalari darajasini aniqlash maqsadida qo'llaniladi. Metodning afzalligi muayyan bolaga xos bo'lgan individual imkoniyatni ko'ra olish, baholash va uni rivojlanirish uchun zamin yaratishida ko'zga tashlanadi.

O'quvchilar ijodini o'rganishning quyidagi shakllari mavjud:

- 1) turli mavzulardagi tanlovlari;
- 2) maktabgacha ta'lif muassasasi ko'rgazmalari;
- 3) festivallar;
- 4) musobaqalar [8: 321].

Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi bo'lgan "Avesto"da ta'kidlanishicha, bilim va tarbiya hayotining asosiy tiryagidir. Har bir yoshni shunday tarbiyalash zarurki, u avvalo yozishni o'rganish asosida bilim olishi, so'ngra odob-axloqi bilan eng yuksak pog'onaga

ko'tarilishi kerak. Kohin muallim oqsoqollar kengashi tomonidan tanlanib, qat'iy belgilangan qoidalar asosida yoshlarga ta'lif va tarbiya bergan. "Avesto"da o'quvchilarni o'qitish va tarbiyalash qoidalari sifatida quyidagilar keltiriladi:

- a) diniy va axloqiy tarbiya;
- b) jismoniy tarbiya;
- d) o'qish va yozishga o'rgatish [9].

Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad al-Beruniy (973–1048) Sharq uyg'onish davrining qomusiy olimlaridan biri bo'lib, o'zining bir qator asarlarida pedagogika va psixologiyaga oid qarashlarini bayon etgan. Olim o'quvchilarni maktabda o'qitish va tarbiyalash jarayonida dunyoviy fanlarni bir-biri bilan bog'lab, turli mavzularda mulohazalar yuritish kerakligini ta'kidlaydi: "Bizning maqsadimiz o'quvchilarni toliqtirib qo'ymaslikdir, bir mavzuni qayta-qayta takrorlab o'qib berish bolani zeriktiradi, xotirasini susaytiradi. Agar bola bir mavzudan boshqa bir yangi mavzuga o'tib tursa, u xuddi turli-tuman bog'larda sayr qilgandek bo'ladi, bir bog'dan o'tar-o'tmas, boshqa bir bog' boshlanadi. Bola ularning hammasini ko'rgisi va tomosha qilgisi keladi. Har bir yangi narsa bolaga rohat bag'ishlaydi, deb be-huda aytilmagan", [10: 186] deydi.

1999-yildan boshlab mamlakatimiz Milliy o'quv das-turiga asosiy ko'nikmalar bilan bir qatorda muloqot, fikrlash qobiliyatları va AKT bilan bog'liq bo'lgan ko'nikmalar ham kiritilgan. Fikrlash qobiliyatlarining rivojlani-

shi barcha asosiy bosqichlarda kutiladi va quyidagilar-ga asoslanadi:

1. *Axborotni qayta ishlash ko'nikmalari*. Mazkur ko'nikma o'quvchilarga tegishli ma'lumotlarni topish va toplash, saralash, tasniflash, ketma-ketlik, taqqoslash va tahrirlash, shaxsiy va guruh munosabatlarini tahlil qilish imkonini beradi.

2. *Mulohaza yuritish qobiliyatları*. Mazkur qobiliyat o'quvchilarga fikr va xatti-harakatlarning sabablarini ko'rsatishga, xulosalar chiqarishga va fikr bildirishga, o'z fikrini tushuntirish uchun aniq tildan foydalanishga, dalillarga asoslangan hukm va qarorlar chiqarishga imkon beradi.

3. *Surishtiruv qobiliyatları*. Bu qobiliyat esa o'quvchilarga tegishli savollarni berish, muammolarni qo'yish va aniqlash, nima qilish va qanday tajriba orttirishni rejalashtirish, natijalarni bashorat qilish va oqibatlarini taxmin qilish, xulosalarni sinab ko'rish va g'oyalarni takomillashtirish imkonini beradi.

4. *Ijodiy fikrlash qibiliyatları*. Bu o'quvchilarga g'o-yalarni yaratish va kengaytirish, gipotezalarni taklif qilish, tasavvurni qo'llash va muqobil innovatsion natijalarni izlash imkonini beradi.

5. *Baholash qibiliyatları*. Mazkur qobiliyat o'quvchilarga ma'lumotni baholash, o'qigan, eshitgan va qilayotgan ishlarining qadr-qimmatini baholash, o'zining va boshqalarning ishi yoki g'oyalari qiymatini baholash mezonlarini ishlab chiqish va o'z mulohazalariga ishonch hosil qilish imkonini beradi.

Foydalilanigan adabiyotlar

1. <https://en.wikipedia.org/wiki/NRC>
2. Do'stmuhamedova Sh.A., Nishanova Z.T., Jalilova S.X., Karimova Sh.T., Alimbayeva Sh.T. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya. Oliy pedagogik o'quv yurtlari uchun darslik. – Toshkent: O'qituvchi, 2015.
3. Бюлер К. Духовное развитие ребенка. – Москва, 1924. Подробнее на livelib.ru: <https://www.livelib.ru/author/171535-karl-byuler>.
4. Дьюи Дж. От ребенка – к миру, от мира – к ребенку. – Москва: 2009. ISBN: 978-5-8403-1539-2; <https://www.livelib.ru/book/1000398297-pedagogikadetstva-ot-rebenka-k-miru-mira-k-rebenku-dyui-dzh-dyui-d>
5. Nishanova Z.T. va boshq. Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya. Darslik. – Toshkent: "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati" nashriyoti, 2018.
6. Akramova F., Ochilova G. Pedagogika. Psixologiya. O'UM. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2010.
7. Xodjayev B., Choriyev A., Saliyeva Z. Pedagogik tadqiqotlar metodologiyasi. Darslik. – Toshkent: 2018.
8. Xoliqov A.A. Pedagogik mahorat. Darslik. - Toshkent: Iqtisod-moliya, 2011.
9. Xolmo'minov J.M. Nitshe va Sharq falsafiy tafakkuri // https://www.researchgate.net/publication/337655961_nitse_va_sark_falsafij_tafakkuri
10. Bola – odobi bilan aziz (Nashrga tayyorlovchi: Ziyoruddin Rahim). – Toshkent: Navro'z, 2015.

Aziza MO'MINOVA,

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Umumiy tilshunoslik kafedrası o'qituvchisi,
filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent;

Munavvar AMONOVA,

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti 1-bosqich magistranti

REKLAMA MATNLARIDA BADIY IFODA

So'nggi yillarda tovar va xizmatlar xilma-xilligi ortishi bilan reklamaga bo'lgan e'tibor oshib bormoqda va ushbu holat reklama matnlarining ham o'rganilish zaru-

riyatini yuzaga chiqarmoqda. Dastavval reklama so'zi xususida. Ushbu so'z lotin tilidan olingan bo'lib, "qich-qirmoq", "jar solmoq" degan ma'nolarni anglatadi. Uning